IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 21 Issue 2 May 2026

KOSMETIK JARROHLIK AMALIYOTLARI VA ULARNING SHAR'IY HUKMLARI

Nodira Murotova
Imom Buxoriy nomidagi
Toshkent Islom Instituti
bakalavr bosqichi 4-kurs talabasi
Tel: +99894 561-44-02
https://doi.org/10.5281/zenodo.20089860

Islom fiqhi inson hayotining barcha jihatlarini tartibga soluvchi mukammal tizimdir. Unda ibodat, muomala, oila, axloq va shaxsiy hayot bilan bog‘liq masalalar aniq mezonlar asosida bayon qilingan. Ayniqsa ayollar fiqhi doirasida ayolning ziynati, libosi, badaniga doir hukmlar, o‘zini parvarish qilishi va tashqi ko‘rinishi bilan bog‘liq masalalar alohida o‘rin tutadi. Chunki ayolning jamiyatdagi va oiladagi o‘rni, uning iffati va go‘zalligi masalasi shariatda nozik va muhim mavzulardan hisoblanadi.

Bugungi kunda kosmetik jarrohlik keng tarqalib borayotgan bir paytda, bu masalani ayollar fiqhi nuqtai nazaridan o‘rganish zarurati yanada dolzarb bo‘lmoqda. Zero, Islom ayolning o‘zini ozoda, pok va chiroyli tutishini targ‘ib qilgan bo‘lsa-da, Alloh yaratgan shaklni o‘zgartirish, sun'iy ravishda husnni orttirish yoki modaga ergashish maqsadidagi aralashuvlarga ma'lum chegaralar qo‘ygan.

Shu bois kosmetik jarrohlik masalasi ayollar fiqhida ziynat va zarurat o‘rtasidagi farq, tanani o‘zgartirish hukmi hamda shariat belgilagan me'yorlar asosida baholanishi lozim. Bu maqolada aynan shu jihatlar tahlil qilinadi va zamonaviy amaliyotlarga fiqhiy yondashuv yoritib beriladi.

Dastavval so'zimizni kosmetik jarrohlik amaliyoti haqida tushunchadan boshlasak. Kosmetik jarrohlikning ta'rifi: Kosmetik jarrohlik insonni zohiriy jismidagi bo‘laklaridan birini o‘zgartirish orqali chiroy kiritish yoki shikast yetganligi sababli vazifasini qayta izga tushirish uchun xizmat qiladigan jarrohlikdir[1].

Demak, kosmetik jarrohlik — bu inson tanasining tashqi qismini operatsiya orqali o‘zgartirishdir. Bu o‘zgartirish ba'zan odamni chiroyliroq ko‘rsatish uchun qilinadi, ba'zan esa biror shikast yoki nuqson sabab buzilgan a'zoni asl holiga qaytarish uchun amalga oshiriladi.

Kosmetik jarrohlik mobaynidagi umumiy shartlar va normalarga amal qilish lozim.

1. Jarrohlik shar'iy e'tibor bilan amalga oshirilgan bo‘lmog‘i lozim. Masalan, vazifani qayta yo‘lga qo‘yish, aybni isloh qilish va xilqatni asliga qaytarish.
2. Jarrohlik umid qilingan manfaat o‘rniga zararni oshirib yubormasligi kerak. Bu ishni mutaxassis va ishonchli kishilar amalga oshirmog‘i lozim.
3. Jarrohlik amaliyotini qiluvchi tabib yoki hamshira o‘sha kasbning ahli va mutaxassisi bo‘lishi va bu mas'uliyat Islom Konferensiyasi Tashkiloti qoshidagi xalqaro islom fiqhi akademiyasning 142-raqamli qaroriga muvofiq bo‘lishi.
4. Jarrohlik amaliyoti bemorning izni bilan bo‘lishi.
5. Tabib ongli va voqe bo‘lishi mumkin bo‘lgan xatarlarni ko‘ra-bila oladigan bo‘lishi lozim.
6. Jarrohlikdan ta'siri oz bo‘lgan boshqa muolaja bo‘lmasligi lozim
7. Shar'iy manbalarga muxolif bo‘lmasligi kerak[2].

[1]Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Kifoya -Toshkent: Hilol-Nashr,2019. -B. 626.
[2]Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Kifoya -Toshkent: Hilol-Nashr,2019. -B. 627.

Yuz a’zolari bilan bog‘liq jarrohlik amaliyotlarini keltirib o‘tamiz.

1. Nuqsonlarni tiklash (rekonstruktiv amaliyotlar)

Bunga, masalan, kesilib ketgan burunni tiklash, yetishmayotgan quloqni to‘ldirish, yirtilgan labni tuzatish yoki tushib qolgan tishni o‘rniga qo‘yish kabi amaliyotlar kiradi. Bunday operatsiyalar joiz hisoblanadi. Chunki ular a’zoni asl holatiga qaytarishni maqsad qiladi, uni o‘zgartirishni emas. Shuningdek, bunda aldov yoki firib unsuri mavjud emas.

Buning dalili sifatida quyidagi rivoyat keltiriladi:

Abdurahmon ibn Tarafa rivoyat qiladi: uning bobosi Arfaja ibn As’ad “Yavmul Kilob” jangida burnidan ayrilgan. U avval kumushdan burun yasatadi, biroq u badbo‘y hid chiqara boshlaydi. Shunda Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam unga oltindan burun yasatishni buyuradilar[3].

Dalil olish jihati: Nabiy *(alayhis salom)* ushbu sahobiyga kesilib ketgan a’zo o‘rniga oltindan burun qo‘yishga ruxsat berdilar. Bu esa davolash va insonni aybli ko‘rsatadigan nuqsonlarni tuzatish maqsadidagi kosmetik amaliyotlarning joizligiga dalil bo‘ladi. Chunki bu holat zarurat yoki ehtiyoj doirasida baholanadi va jarrohlik yo‘li bilan davolash shar’an ma’qul hisoblanadi.

Shuningdek, Abdulloh ibn Abu Sululdan rivoyat qilinadi: Uhud jangida uning old tishi sinadi. Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam unga oltindan tish qo‘yishni buyuradilar[4].

2. Burunni kichraytirish yoki shaklini o‘zgartirish

Agar burun kattaligi insonda ruhiy aziyat uyg‘otsa, uni kichraytirish yoki shaklini tuzatish amaliyoti, shar’iy jihatdan man etilmaydi. Biroq bu operatsiya natijasida zarar yuzaga kelmasligi shart.

3.Tuklarni olib tashlash

Ayol yuzida mo‘ylov yoki soqol kabi sochlarning o‘sishi odatiy holat emas. Bunday sochlar tabiiy ayollik qiyofasiga zid bo‘lib, tashqi ko‘rinishda nuqson hisoblanadi. Shu bois ularni olib tashlashning shar’iy hukmi qanday? Bu man qilingan “namas” (tuklarni yulish) doirasiga kiradimi yoki yo‘qmi? Ushbu masalaga aniqlik kiritish uchun, avvalo, fiqh ulamolarining harom qilingan “namas” tushunchasiga bergan ta’riflarini ko‘rib chiqish lozim.

Hanafiylar nazarida harom qilingan namas — bu ayolning begona erkaklarga ziynatlanish va ko‘z-ko‘z qilish maqsadida yuzidagi tuklarni yulish, shuningdek, zarurat yoki ehtiyoj bo‘lmagan holda ularni olib tashlashidir. Ammo badandagi misol uchun, oyoq, qo‘l va yuzdagi boshqa tuklar ayollik xilqatiga zid, nuqson bo‘lib zohir bo‘ladigan bo‘lsa, ularni terish, tozalash joiz.

4. Sochlarni bo‘yash

Sochni bo‘yashga kelsak, bu ham ziynatga taalluqli masalalardan bo‘lib, aslida u joizdir. Faqat bunda ba’zi shartlar bor. Nabiy *(alayhis salom)* sahih hadisda: “Manavi oq sochlarni bir narsa bilan o‘zgartiringlar”, yana boshqa bir rivoyatda: “Uni o‘zgartiringlar. Qora rangdan chetlaninglar”, deganlar *(Sahihi Muslim).* Shu bois, ba’zi fuqaholar qora rangga bo‘yashni man qilganlar. Bu bir qavldir. Boshqa bir qavlga ko‘ra, qoraga bo‘yash makruhdir. Bundan qoraga bo‘yash haromligini emas, balki odob-axloqqa zid ekanligini tushunish mumkin. Ixtiyor qilingan qavl shudir[5].

---

[3]Muhammad ibn Muso Termiziy. Sunani Termiziy. –Riyoz: Maktabatul Maorif, 2000. –J. 1. –B. 371.

[4]Abu Bakr Ahmad ibn Umar Bazzoz. Musnadi Bazzoz. –Madinai Munavvara: Maktabatul ulum va hikam. 2011. –B 327.

[5]Odinaxon Muhammad Sodiq. Qizlarjon. -Toshkent: Hilol-Nashr,2019. -B. 107.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz lozimki, islom dini insonni har qanday holatda yengillik va osonlik bilan yashashga chorlaydi, fiqhiy hukmlar ham unga murakkablik keltirmasdan, hayotning turli jabhalarida qulaylik va osonlik taqdim etadi. Shu bilan fiqh insonning kundalik hayotini tartibga soladi, unga ibodat va muomala amallarini oson va tushunarli qilib beradi. Muslim va muslimalar zimmasiga o’z dinlariga amal qilib, shari’at doirasida yashashlari lozim bo‘ladi.

Zero, ikki dunyoda saodat topishning, Alloh subhanahu va taolo roziligiga erishishning yagona yo‘li ham shudir.